

KORRUPSIYA TIZIMI GENEZISI, UNGA QARSHI KURASH TIZIMI TARIXI

Suyunov Ilyos Juma o'g'li, Surxondaryo viloyati IIB xodimi, ilmiy izlanuvchi

GENESIS OF THE CORRUPTION SYSTEM, HISTORY OF THE SYSTEM TO FIGHT AGAINST IT

Suyunov Ilyas Juma o'g'li, an employee of the Ministry of Internal Affairs of Surkhandarya region, a researcher

ГЕНЕЗИС КОРРУПЦИОННОЙ СИСТЕМЫ, ИСТОРИЯ СИСТЕМЫ БОРЬБЫ С НЕЙ

Суюнов Ильяс Джума оглы, сотрудник МВД Сурхандарьинской области, научный исследователь



<https://orcid.org/0009-0001-4523-4678X>

e-mail:
suyunovilyos89@gmail.com

Annotatsiya: So'nggi yillarda nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida yetarli tajriba shakllangan. Bu boradagi barcha rivojlangan davlatlarning amaliyoti e'tiborga molik. Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi muvaffaqiyatlar, avvalambor, muayyan davlatda mazkur sohada faoliyat olib boruvchi tegishli institutlarning tashkil etilganligi, faoliyati samarali olib borilganligiga bog'liq. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi shakllanishining ham o'ziga xos tarixi mavjud. Ushbu maqolada korrupsiya tizimi genezisi, unga qarshi kurash tizimi tarixi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya tizimi, Korrupsiya holatlarining tergov byurosi, qadimgi Shumer, Surxondaryo viloyati.

Abstract: In recent years, sufficient experience has been formed not only in our country but also throughout the world in combating corruption. The practice of all developed countries in this regard is noteworthy. Success in combating corruption depends, first of all, on the establishment and effective implementation of relevant institutions operating in this area in a particular country. The formation of the anti-corruption system also has its own history. This article provides information about the genesis of the corruption system, the history of the system for combating it.

Key words: corruption system, Bureau of Investigation of Corruption Cases, ancient Sumer, Surkhandarya region.

Аннотация: За последние годы не только в нашей стране, но и во всем мире сформирован достаточный опыт борьбы с коррупцией. Примечательна практика всех развитых стран в этом отношении. Успех в борьбе с коррупцией зависит, прежде всего, от создания и эффективного функционирования соответствующих институтов, работающих в этой сфере в конкретной стране. Становление антикоррупционной системы имеет свою историю. В данной статье представлена информация о зарождении коррупционной системы и истории системы борьбы с ней.

Ключевые слова: коррупционная система, Бюро по расследованию коррупции, древний Шумер, Сурхандарьинская область.

KIRISH. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, taraqqiyotga to'siq bo'layotgan eng xavfli illatlardan biri hech shubhasiz korrupsiyadir. Dunyo iqtisodiyoti har yili korrupsiyadan 2,6 trln dollar zarar ko'radi. Bu jahon yalpi mahsulotining taxminan 5 foizini tashkil etadi.

MUHOKAMA. "Korrupsiya" lotincha "corruptum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "singan, buzilgan, sotib olingan, pora evaziga og'dirish" degan ma'nolarni bildiradi. Korrupsiya jinoyatchiligi iqtisodiyotga, mamlakat siyosiy va xalqaro mavqeyiga hamda jamiyat ma'naviy-axloqiy nufuziga fojiali zarar yetkazadigan xavfli illat hisoblanadi.

Korrupsiya jamoat munosabatlari tizimidagi eng qadimiy hodisalardan biridir. Tabiiyki, tarixiy jarayon davomida bu hodisa muttasil o'zgarib bordi, hamda siyosiy, iqtisodiy tartiblar murakkablashib borgani sari uning namoyon bo'lishining yangi shakllari vujudga keldi.

Korrupsiyaning paydo bo'lishining asosiy nazariyalariga to'xtalganda, korrupsiya nima uchun paydo bo'lishining fanda mavjud tushuntirishlarini tahlil qilish lozim. Korrupsiyaning kelib chiqishi haqidagi asosiy nazariyalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Korrupsiyaning sotsiologik nazariyasi. Korrupsiya jinoyatning bir turi bo'lganligi sababli, u ma'lum bir statistik qonuniyatlarga bo'ysunadigan jamiyat mahsuli bo'lib, uning o'zgarishi ijtimoiy, individual, jismoniy omillar ta'siriga bog'liq.

2) Qonunchilikni tartibga solishdagi kamchiliklar va xatolar nazariyasi. Bu nazariyaning mohiyati shundan iboratki, korrupsiyaning oldini olishga doir qonunchilikni tartibga solishdagi qator xato va bo'shliqlar natijasida yuzaga keladi hamda bu korrupsiyaning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

3) Foyda nazariyasi. Ushbu nazariyaning mohiyati shundaki, yer yuzidagi odamlar maksimal foyda olishga intilishadi va rasmiylar bundan mustasno emas.

4) Korrupsiyaning tarixiy nazariyasi.

5) Avtoritarizm nazariyasi. Korrupsiyani ijtimoiy hodisa sifatida nazariy tahlil qilish jahon sotsiologiyasi klassiklarining fundamental g'oyalari aks etgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarning, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qur'oni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar", deyilgan. Bu mavzuga antik davr mutafakkirlaridan Aflotun, Arastu, Sitseron, sharqda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Xaldun, Amir Temur kabi hukmdor va jamiyatshunos olimlarning falsafiy qarashlarida e'tibor qaratilganligi aks etgan. XX asr boshlarida yashab o'tgan A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Fitrat va boshqa shu kabi jadid ma'rifatparvarlarining asarlarida jamiyat taraqqiyotiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy-ma'rifiy muammolar, jumladan poraxo'rlik, birovlarning haqqini yeyish kabi illatlar xususida alohida to'xtalib o'tilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787-yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida pora olish AQSH prezidentini impechmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rning oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Korrupsiyaga qarshi birinchi ixtisoslashgan organlardan biri 1952-yilda tashkil etilgan Singapur Korrupsiya holatlarining tergov byurosi bo'lib, keyinchalik bunday organlar Hindistonda Ogohlik bo'yicha Markaziy qo'mitasi (1964), Ozarbayjonda Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi (2004), Gruziyada Korrupsiyaga qarshi Kengashi (2008), Koreya Respublikasida Korrupsiyaga qarshi

kurashish va fuqarolik huquqlari bo'yicha mustaqil komissiya (2008) shaklida tashkil etilgan.

O'zbekistonning 2008-yilda BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga qo'shilganligi bu borada amalga oshirilgan birinchi qadam bo'ldi. Prezidentimiz tashabbuslari bilan 2017-yil yanvar oyida qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun va alohida Davlat dasturida esa navbatdagi vazifalar belgilab olindi. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 31ta qonun, 97ta farmon va 17 qaror, Vazirlar Mahkamasining 90dan ortiq qarorlari va ichki idoraviy hujjatlar qabul qilingan[6].

Ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun alohida organ — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Shu bilan birga davlat hokimiyati organlari va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyat ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalardan keng foydalangan holda transport vositalariga davlat raqam belgilarini berish, notarial va boshqa davlat xizmatlarini ko'rsatish, yer uchastkalarini ajratish, yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish kabi ko'plab sohalarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilmoqda. Shunga qaramay, o'tgan yili Surxondaryo viloyatida 272ta korrupsiyaga oid holat aniqlanib, 337 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi. Bu shaxslarning 37 nafari sog'liqni saqlash, 34 nafari bank, 27 nafari xalq ta'limi, 16 nafari maktabgacha ta'lim, 12 nafari uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, 10 nafari davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mansabdor shaxslaridir. Viloyat prokuraturasi uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Rustam Ibragimov ma'ruzasida aytilganidek, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, energetika va boshqa sohalarda byudjet mablag'laridan foydalanish, davlat xaridlari, kapital qurilish, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, bank kreditlari ajratish, ishga qabul qilish kabi yo'nalishlarda korrupsiya holatlari davom etmoqda. Misol uchun, viloyat perinatal markazi bosh hisobchisi 2018-2020-yillar davomida byudjetdan ajratilgan 425 million so'mni talon-taroj qilgan va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirgan[5].

O'zbekistonda aniqlangan korrupsion huquqbuzarliklar davlat korxonalari va muassasalari, ichki ishlar organlari va banklar eng korrupsiyalashgan sohalar ekanligidan dalolat beradi. Ushbu joylarning aksariyati aholi tomonidan so'rov davomida aniqlangan joylarga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, mansabdor shaxslar tomonidan 2013-yildan 2020-yilgacha sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar 43 foizga kamaygan, aynan prokuratura organlari tomonidan 2015-yildan 2020-yilgacha turli korrupsion jinoyatlar uchun 14 171 shaxsga qarshi (2015-yil – 6853, 2016-yil – 4524, 2017-yil – 2794) 8572 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan (2015-yil – 3778, 2016-yil – 2860, 2017-yil – 1934, 2018-yil – 1907, 2019-yil – 1339)[1].

Bosh prokuratura huzuridagi departament tomonidan yashirin iqtisodiyotga chek qo'yish, byudjet mablag'lari talon-taroj qilinishining oldini olish choralari ko'rilgan. Natijada 3600ga yaqin ma'muriy huquqbuzarlik va 3500dan ziyod jinoyat fosh etilgan. Xususan, soliqdan bo'yin tovlash bilan bog'liq 277ta jinoyat aniqlanib, byudjetga 563 mlrd so'm qo'shimcha soliq undirilgan.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga mas'ul bo'lgan organlar tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2018-yilda jami 1299ta (2019-yilda 994) jinoyat ishi bo'yicha 1907 (1339) nafar mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan. Mazkur jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 559 mlrd 174 mln so'm (1 trln 853 mlrd 875 mln) miqdorida moddiy zarar yetkazilgan. Tergov jarayonida bu zararining 524 mlrd 506 mln so'mi (1 trln 746 mlrd 268 mln) yoki 93,8 (94,1) foizi undirilgan. Yoki, 2020-yilning 3 oyi davomida respublika bo'yicha jami 87ta jinoyat ishi bo'yicha 115 nafar mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lib, oqibatda davlat va jamiyat manfaatlariga 51,3 mlrd so'm miqdorida moddiy zarar yetkazilgan bo'lib, tergov jarayonida ushbu zararining 18,3 mlrd so'mi undirilgan.

Surxondaryo viloyatida ham "Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish" bo'limi xodimlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha, 2017-yil 2-choragi davomida jami 81ta (2016-yilda 75 ta) jinoyat aniqlangan, shulardan 18ta (2016-yilda 17ta) guruhlar tomonidan sodir etilgan bo'lib, 107 nafar (2016-yilda 99 ta) shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Davlatga yetkazilgan umumiy moddiy zarar miqdori 1388,7 (2016-yilda 672,5) mln soʻmni tashkil etib, shundan 1112,6 (2016-yilda 591,5) mln soʻmi jinoyatchilardan undirib olingan.

Aniqlangan 81ta jinoyatning 11tasi (2016-yil 11 ta) poraxoʻrlik, 5 tasi (2016-yilda 3 ta) tovlamachilik jinoyati, 26tasi (2016-yilda 18ta) moliyaviy firibgarlik, 14tasi talon-tarojlik (2016-yilda 12ta) jinoyati, valyuta qoidalarini buzish 3ta (2015-yilda 3ta) aniqlangan, 1tasi qalbaki pul bilan bogʻliq (2016-yilda 1) aniqlangan, 21tasi (2016-yilda 27ta) boshqa turdagi jinoyatlardir[4].

XULOSA. Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash kerakki, yurtimizda oxirgi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asosi mustahkamlandi, vakolatli organlar doirasi aniq belgilandi, bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtiruvchi organ tashkil etildi va ushbu organ tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor yoʻnalishlari davriy yigʻilishlarda koʻrib chiqilib, sohadagi dolzarb masalalarni hal etib kelinmoqda, aniq sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqish,

amalga oshirish, xavf-xatarlarni aniqlash hamda bartaraf etish yuzasidan aniq mezonlar shakllandi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

10. B.I.Ismailov. Oʻzbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi rivojlanishi.// Monografiya. -T.: Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy taʼlim markazi, YuMOM. 2020.-170 b.
11. Meliyev X. Korrupsiyaga qarshi kurash muammolari: milliy va xalqaro tajriba. 2009-yil 20-21-oktyabrdagi xalqaro ilmiy-amaliy seminar materiallari - Toshkent: "Chashmaprint", 2010. B.139.
12. Бахтишод Хамидов, ИТИМ. Экономическое обозрение. №4 (244) 2020.
13. Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi hisobot materiallari. 2016-2021-yillar.
14. Surxon tongi. 2022-yil 23-fevral. 10-son.
15. Lex.uz

